H. Yusoff fikricha, "Likvidlilik kompaniyalar faoliyatining uzluksizligini ta'minlovchi muhim elementlardan biri hisoblanadi, chunki yetarlicha likvidlikka ega bo'lmagan kompaniyalar o'z yetkazib beruvchilari oldidagi qisqa muddatli majburiyatlarini to'lay olmasligi, xizmatlar va tovarlarni o'z vaqtida taqdim eta olmasligi, bu ularning obro'siga ta'sir qilishi mumkin. kompaniyaning o'z aktivlarini optimal boshqarishda samarasizligi tufayli bankrotlikka olib keladi"[6].

Mazkur muallif fikriga qaraydigan bo'lsak, u ham aynan daromadlilik va likvidlilikni bir-biriga yaqin tushuncha sifatida qarab, likvidlilikni yo'qotmaslik, joriy qarzdorlikni to'lash uchun harakat qilish lozimligini keltirib o'tgan.

L. A. Soenen fikricha, "Likvidlik koeffitsiyentlari bir tomondan korxonaning naqd va naqd pulga yaqin aktivlari (birgalikda "joriy" aktivlar deb ataladi) va boshqa tomondan darhol to'lov majburiyatlari (joriy majburiyatlar) bilan ishlaydi. Naqd pulga yaqin aktivlar odatda mijozlarning debitorlik qarzlari va to'liq mahsulotlar va qayta ishlanmagan materiallar zaxiralaridan iborat. Aktivlar tomonidan yaratilgan operatsion pul oqimlari firmaning doimiy likvidligiga ta'sir qiladi"[7].

L. A. Soenenning fikrini ko'radigan bo'lsak, joriy aktivlar va joriy majburiyatlarga urg'u berilganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni bu yerda aynan joriy aktivlar naqd pulga yaqin va tez pulga aylanuvchi element sifatida qaralgan bo'lib, uning mavjud bo'lishi joriy majburiyatlarni qoplashga yetarli darajada bo'lishi bilan ifodalanadi.

Abryutina esa, Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonaning mavjudligi va faoliyati uchun uning likvidligini uzoq muddatli va qisqa muddatli (to'lov qobiliyati) saqlab turish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda likvidlikni ta'minlash korxona mavjudligining eng muhim sharti va uning rivojlanishga qodirligi va boshqaruv uslubini tavsiflovchi asosiy mezonga aylanib bormoqda[8] deya e'tirof etadi.

Ushbu muallifning fikrlarini yuqoridagi fikrlardan to'liqroq ekanligini bir jihati borki, korxona o'zining moliyaviy holatini boshqarish strategiyasida albatta faqat joriy to'lov qobiliyatiga erishish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ayni vaqtda uzoq muddatli to'lov qobiliyatini ham doimiy hisob-kitobini qilib, shunga yarasha xulosa qilishi va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishi maqsadga muvofiq.

Yana bir muallif Kalashnikova korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish shoshilinch majburiyatlar miqdorini ko'paytirmaslik bilan amalga oshirilgan hollarda korxonani joriy likvidlik koeffitsiyenti va o'z kapitalining standart qiymatlariga yetkazish quyidagi shartlarga rioya qilishni talab qiladi deya ta'kidlaydi[9]:

- joriy aktivlarning joriy majburiyatlardan ikki baravar oshishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan miqdorda foyda olish (muddatli majburiyatlar miqdorini oshirmasdan). Joriy likvidlik koeffitsiyentini hisoblash algoritmidan ko'rinib turibdiki, uning dinamikada o'sishiga kreditorlik qarzlarini qisqartirish yoki aylanma mablag'lar (aylanma mablag'lar) o'sishidan o'zib ketish orqali erishish mumkin. Balans koeffitsiyentlaridan ko'rinib turibdiki, kreditorlik qarzlarining qisqarishi o'z-o'zidan mumkin emas – bu har doim joriy aktivlarning ekvivalent qisqarishi bilan birga keladi. Shu sababli, to'lov qobiliyatini tiklashning yagona maqbul vositasi – bu korxonaning iqtisodiy faoliyati natijalari hisobiga aylanma mablag'larni bir vaqtning o'zida foydani ko'paytirish (taqsimlanmagan foydani anglatadi);
- zaxiralar o'sishining kamida yarmi "taqsimlanmagan foyda" passiv moddasi bilan qoplanishi kerak (agar muddatli majburiyatlar miqdori oshmasa);
- minimal zararsizlik sharti sifatida o'zgaruvchan xarajatlar qoplangandan keyin sotish natijasida doimiy xarajatlarni qoplash.

So'nggi yillarda mazkur masalada ilmiy izlanish olib borgan mahalliy olimlarimizdan N. Mavlanov[10] joriy aktivlar tarkibidagi bir qator aktiv turlari kredit to'lovi uchun mablag' bo'la olmasligini ta'kidlaydi va debitorlik qarzlari tarkibidan muddati o'tgan debitorlik qarzlari (211-satr), xodimlarga berilgan bo'naklar (250-satr), byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (270-satr), maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (280-satr), ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlari bo'yicha qarzlari (290-satr) kabilarni kreditga to'lov layoqatini hisoblashda ayirib tashlashni lozim deb hisoblaydi.

Mazkur mualllif fikrlari tashqaridan qaraganda, ya'ni tijorat banklari nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda to'g'ri hisoblash mumkin. Ya'ni Mavlanov tomonidan ayririb tashlanishi tavsiya qilinayotgan ko'psatkichlar, balans moddalari, aslida, kopxona uchun debitorlik qarzi sifatida hisobga olinib, tijorat banklari mazkur debitorlik qarzlapiga o'z qarzlarini undipish maqsadida harakatni amalga oshira olmaydi. Muallifning takliflari bank tomonidan qaralganda ahamiyatli hisoblanadi. Biroq xo'jalik yurituvchi subyekt uchun bu debitorlik qarzi biror ish va xizmatni bajarilishi hisobiga so'ndirilishi ham inobatga olish lozim.

---

6 Yusoff, H. B. M. (2017). The Effect of Liquidity and Solvency on Profitability: The Case of Public-Listed Consumer Product Companies in Malaysia (Master Thesis). University Tun Hussein Onn Malaysia.

7 SOENEN, L. A. (1993). Cash conversion cycle and corporate profitability, Journal of Cash Management, Vol 13 No 4 pp. 53–58.

8 Абрютина Н. С. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия. М.: "Дело и сервис", 2000г. – 256 с.

9 Елена Калашникова. Часть VI. Критерии успешного антикризисного управления финансами предприятия. 2010

10 Mavlanov N. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B. 15.

Bizga ma'lumki, debitorlik qarzlarining kunlik aylanmasi sotishdan tushadigan sof daromadni debitorlik qarzlarining o'rtacha arifmetik miqdoriga bo'lish orqali aniqlanishi keltirilgan. Ammo bilamizki, buxgalteriya balansida 210-satrdagi debitorlar tapkibi birmuncha noaniq keltirilgan. Ya'ni buxgalteriya balansiga ko'ra debitorlar (210-satr tarkibiga) xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari (4000 dan 4900 ning ayirmasi), alohida bo'linmalarning qarzlari (4110), sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari (4120), xodimlarga berilgan bo'naklar (4200), mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300), byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400), maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500), ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlari bo'yicha qarzlari (4600), xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari (4700), boshqa debitorlik qarzlari (4800) kiritilishi belgilangan. Fikrimizcha, bularning hammasi ham daromad olish maqsadidagi debitorlik qarzlari emas. Ya'ni ayrim debitorlik qarzlari hisob-kitobda bip necha bor ishtirok etishi mumkin. Vaholanki, sotishdan olinadigan daromadga ushbu debitorlik qarzining umuman aloqasi yo'q.

Yana bir mahalliy tadqiqotchi G. Turdiyeva tijorat banklari nuqtayi nazaridan kredit qobiliyati tushunchasiga "Kredit qobiliyati – korxonaning moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarida ifodalangan huquqiy, moliyaviy va nomoddiy tavsiflarining majmui bo'lib, kreditor oldidagi majburiyatlarini kelajakda kredit shartnomasida ko'zda tutilgan muddatlarda va to'liq qoplash imkoniyatlarini baholash, shuningdek, bankning ma'lum bir xo'jalik yurituvchi subyektni kreditlashdagi risk darajasini aniqlash imkonini beradigan mezon" deya ta'rif beradi[11].

Bundan ko'rinadiki, G. Turdiyeva o'z takliflarini xo'jalik yurituvchi subyekt misolida emas, tijorat banki nuqtayi nazaridan bergan.

N. Mavlanov esa, bu tushunchaga oid bir qancha o'rganishlar o'tkazgani holda kreditga layoqatlilik xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsakichlari asosida uning kelgusidagi imkoniyatlarini prognozlash orqali kredit (asosiy qarz va foizi)ni iqtisodiy samara olish hisobiga o'z vaqtida va to'liq qaytara olish qobiliyatidir deya o'z mualliflik ta'rifini shakllantirgan[12].

N. Mavlanov tomonidan olib borilgan tadqiqot ham aynan tijorat banklari nuqtayi nazaridan o'tkazilgan bo'lib, ta'rif ham to'laqonli korxonaning to'lovga layoqatligi emas, aynan tijorat banklari tomonidan korxonaga kredit ajratishda hisoblanishi zaruriyatga aylangan kredit qobiliyatiga qaratilgan.

Umuman olganda oxirgi yillarda qilingan yuqoridagi ikkala ilmiy ishlanmada ham aynan tijorat banklari tomonidan qo'yiladigan pozitsiya asos sifatida olingan.

Bizning fikrimizcha, to'lov qobiliyati va kredit qobiliyati tushunchasi o'z-o'zidan mana shu joyning o'zida ajratilishini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, to'lov qobiliyati bu keng tushuncha bo'lib, aynan kreditlarni to'lash qobiliyati uning bir qismi sifatida qarash mumkin.

Shu bois, bizning fikrimizcha, to'lov qobiliyati xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan qarz majburiyatlarini turli shartlar asosida to'lash imkoniyatini ifodalovchi ko'rsatkichdir.

Albatta mazkur ko'rsatkich turli iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi va uning natijasiga ko'ra unga baho beriladi. Bunda ko'rsatkichni aniqlashda yuqoridagi mualliflar ta'kidlaganiday moliyaviy, nomoliyaviy ko'rsatkichlar hisob inobatga olinishi mumkin. Biroq, oxir-oqibat xo'jalik yurituvchi subyektning to'lovga qobiliyati bor yoki yo'qliga baho beriladi hamda shu asosda korxona moliyaviy holatini boshqarishga qaratilgan xulosalar chiqariladi hamda qarorlar qabul qilinadi.

Yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki, to'lov qobiliyati koeffitsiyenti – bu xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini tekshirishga yordam beradigan ko'rsatkich hisoblanadi. Xususan, bu bizga xo'jalik yurituvchi subyektning joriy va uzoq muddatda moliyaviy majburiyatlarini bajara olishini aniqlash imkonini beradi.

Ko'rsatkich kreditorlar, investorlar, mol yetkazib beruvchilar va ma'lum bir kompaniya bilan biznes qilishni xohlaydigan boshqa tashkilotlar uchun juda foydali. U odatda korxonaning rentabelligini uning moliyaviy jihatdan mustahkamligini aniqlash uchun uning majburiyatlari bilan taqqoslash uchun ham xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, ma'lumotlarga ko'ra, yuqori yoki kuchli to'lov qobiliyati koeffitsiyenti afzallik beriladi, chunki bu moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichidir. Boshqa tomondan, past nisbat kelajakda mumkin bo'lgan moliyaviy to'siqlarni ochib beradi.

Agar to'lovlar mablag'larni olishdan oldin bo'lsa va kapitalga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun hech narsa bo'lmasa, likvidlik bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi. Kapital aylanmasining ketma-ketligi buziladi, rejalashtirilgan vaqt oralig'ida kapitalni bog'laydigan va chiqaradigan moliyaviy oqimlar o'rtasida likvidlik bo'shlig'i mavjud. Ko'pincha bu to'lov oqimlarini boshqarishdagi ma'lum kamchiliklar, investitsiyalar, moliyalashtirish, xarajatlar, daromadlar, kapitalning kirib kelishi va chiqishi o'rtasidagi munosabatlarda ifodalangan moliyaviy jarayonlarning mohiyatini noto'g'ri tushunish natijasidir. Korxonaning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatining zamonaviy tahlili likvidlik bilan bog'liq asosiy muammolarni aniqlash imkonini beradi, bu uning

11 Turdiyeva G. Xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2019.

12 Mavlanov N. Xo'jalik yurituvchi subyektlar kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2019.

moliyaviy holatini malakali boshqarishning zaruriy shartidir. Tahlil korxona likvidligi past boʻlgan taqdirda ham, toʻlovlar va tushumlar oqimi muvozanatda boʻlganda ham, barqaror toʻlov qobiliyati, normal moliyaviy barqarorlik mavjud boʻlgan taqdirda ham zarur hisoblanadi.

Bugungi kunda koʻpgina korxonalarda buxgalteriya hisobi dasturiga kiritilgan maʼlum koeffitsiyentlar toʻplamini tizimli hisoblash asosida toʻlov qobiliyati va moliyaviy barqarorlikni soddalashtirilgan tahlil qilish tizimi mavjud. Ushbu koeffitsiyentlarni baholash faqat maʼlum bir davr uchun ularni standartlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Bunday tahlil bilan munosabatlarni kuzatish, omillar taʼsirini aniqlash, oldindan belgilangan maqsadlarga erishish bilan bogʻlash mumkin emas va rahbarlar ushbu maʼlumotlardan xoʻjalik yurituvchi subyekti moliyasini boshqarishda yetarlicha samarali foydalana olmaydilar. Bu, birinchi navbatda, korxonalar likvidlikni maqsadli boshqarish bilan amalda shugʻullanmasligi bilan izohlanadi.

Zamonaviy raqamlashgan sharoitda moliyaviy oqimlar qiymatlar harakatini aks ettiruvchi sxemalar shunchalik murakkabki, ularni ilmiy asoslangan usullar yordamida boshqarishning iloji yoʻq. Bu nafaqat oʻtish iqtisodiyotining obyektiv sharoitlari bilan bogʻliq. Buning muhim sababi shundaki, koʻpgina korxonalar uchun mulk masalasi haligacha hal qilinmagan va ularning rahbarlari uning uzoq muddatli mavjudligi tamoyilini oʻz faoliyati bilan bogʻlamaydilar. Bozorlardagi raqobat hali chinakam kuchayib ketmaganligi, birinchi navbatda, ichki omillar tufayli maʼlum raqobatdosh ustunliklarga erishilganda, malakali moliyaviy boshqaruv muhim ahamiyatga ega.

Shunga qaramay, iqtisodiy qonunlar biz ularni tushunamiz yoki tushunmasligimizdan qatʼi nazar amal qiladi va bozor munosabatlarining shakllanishi davom etmoqda. Bizning moliyaviy boshqaruv harakatlarimiz ushbu qonunlarga qanchalik tez mos kelsa, bu sxemalar shunchalik shaffof boʻladi, biz yengishimiz kerak boʻlgan qiyinchiliklar shunchalik kam boʻladi va keyin moliyaviy boshqaruv usullarini bilish juda dolzarb boʻladi.

Yuqorida taʼkidlab oʻtildiki, odatda xoʻjalik yurituvchi subyektlarning toʻlovga qobiliyatliligi uning buxgalteriya balansi maʼlumotlari asosida shakllantirilgan axborotlarga asosan hisoblab chiqiladi va shunga qarab hisoblangan koeffitsiyentlarga baho beriladi.

Kovalev va Privalovlarning fikricha, balansning likvidligiga erishish balansning passivlari va aktivlari oʻrtasida maʼlum mutanosiblikni nazarda tutadi. Ushbu nisbatlarga rioya qilish va ularni yetarlicha uzoq muddatda saqlash korxona nafaqat toʻlovga qodir ekanligini, balki oʻz mablagʻlariga ega boʻlishini koʻrsatadi, ularning mavjudligi faqat u foydali ishlagan taqdirdagina mumkin. Korxona likvid balansga ega, shuning uchun u foydali[13].

Bocharovda keltirilishicha, balansning eng muhim koʻrsatkichi – bu korxonaning toʻlov qobiliyati boʻlib, u xoʻjalik shartnomalariga muvofiq asbob-uskunalar va materiallarni yetkazib beruvchilarning toʻlov qobiliyatiga ega boʻlgan talablarini oʻz vaqtida qondirish, kreditlarni qaytarish, xodimlarga ish haqini toʻlash, toʻlovlarni amalga oshirish qobiliyatidir[14].

Manbalarda kompaniyaning toʻlov qobiliyatini aniqlashning bir nechta usullari mavjud, toʻlov qobiliyatini hisoblashning asosiy formulasi quyidagicha keltirilgan[15]:

**Toʻlov qobiliyati koeffitsiyenti = (sof daromad + amortizatsiya) / barcha majburiyatlar (qisqa muddatli + uzoq muddatli majburiyatlar)**

Yuqoridagi formuladan koʻrishimiz mumkinki, toʻlov qobiliyati daromad va amortizatsiyaning yigʻindisini majburiyatlarga boʻlish orqali ifodalangan.

Biroq bizning fikrimizcha, bu formula xoʻjalik yurituvchi subyektning toʻlovga qobiliyatini toʻlaqonli ifodamaganligi bilan birga, amaldagi toʻlov qobiliyati koeffitsiyentini hisoblash formulalaridan sezilarli farq qiladi.

Jumladan, N. Mavlanovda keltirilishicha, banklar tomonidan xoʻjalik yurituvchi subyektlarning qoplash koeffitsenti, yaʼni kreditlarni qoplay olish koeffitsiyentini hisoblash joriy aktivlarni (buxgalteriya balansi 390-satr) joriy majburiyatlarga (buxgalteriya balansi 600-satr) boʻlish orqali hisoblanadi.

Aynan mana shu formula koʻplab manba va adabiyotlarda takrorlangan. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi “Davlat ulushi boʻlgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish toʻgʻrisida”gi 207-sonli qarorida ham toʻlov qobiliyati koeffitsiyenti sifatida keltirilgan boʻlib, quyidagicha formula boʻyicha aniqlanishi koʻrsatilgan:

$$Ktq = A2 / (M2 - Um)$$

Bunda: A2 – 1-Shning II qismi, 390-satri; M2 – Balans passivining II qismi, 770-satri; Um – uzoq muddatli majburiyatlar (2-Shning 490-satri).

13 Ковалев А. И., Привалов В. П. Анализ финансового состояния предприятия. М.: “Центр экономики и маркетинга”, 2000г. – 209 с.
14 Бочаров В. В. Финансовый анализ. С-Пб.: “Питер”, 2001г. – 236 с.
15 https://corporatefinanceinstitute. com/resources/knowledge/finance/solvency-ratio/

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, aksariyat manbalarda to‘lov qobiliyati deyilganda joriy aktiv va joriy majburiyatning nisbati tushuniladi. Biroq to‘lov qobiliyatini aniqlashda faqatgina joriy aktiv va joriy majburiyatni inobatga olinishi to‘g‘ri hisoblanmaydi.

Bu borada ayrim manbalarda, jumladan, G. Turdiyevaning tadqiqot ishida kredit va ularning foizini o‘z vaqtida qaytarilishi ta’minlash uchun hisob siyosatida uzoq muddatli kreditorlik qarzlarining joriy muddatli kreditorlik qarzlariga o‘tkazilgan qismi to‘g‘risida ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozimligi keltirilgan[16].

Biroq muallif, yana aynan tijorat banklari nuqta nazaridan yondashib faqat kreditorlik qarzlarini joriyga o‘tkaziladigan qismini ko‘rsatish lozimligini ko‘rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lov qobiliyatini real va to‘g‘ri aniqlash aynan buxgalteriya balansi, umuman olganda moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida aniqlanganda biz tomonimizdan aniqlanayotgan davrga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda agar o‘tgan yilgi hisobot asosida to‘lov qobiliyati aniqlanayotgan bo‘lsa, to‘lov qobiliyati aniqlanayotgan oy yoki chorakni ham qo‘shgan holda, joriy aktiv va joriy majburiyatlarni inobatga olgandan tashqari quyidagi ikkita ko‘rsakichni ham alohida hisoblash maqsadga muvofiq:

1. Uzoq muddatli debitorlik qarzlarining joriyga o‘taziladigan qismi;
2. Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy majburiyatga o‘tkaziladigan qismi.

Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, xo‘jalik yurituvchi subyekt to‘lov qobiliyatini aniqlashda eng muhim masalalardan biri korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda pul mablag‘lari, zaxiralarini inobatga olinishidadir. Shu bilan birga har bir aktivning xo‘jalik yurituvchi subyektda ishlatilishi va saqlab turilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, korxona to‘lov qobiliyatini to‘laqonli aniqlashda quyidagilarni ham inobatga olish maqsadga muvofiq:

- ombordagi xom ashyo miqdori va uning xo‘jalik yurituvchi subyektda o‘rtacha qancha vaqtda mahsulotga aylanishi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning qancha vaqtda debitorlik qarziga aylanishi;
- debitorlik qarzlarining qancha vaqtga pul mablag‘iga aylanishi;
- pul mablag‘larining takror ishlab chiqarish jarayonida yana xom ashyo xaridi va ta’minot jarayoniga sarflanishi.

Umuman olganda bizningcha, to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti kompaniyaning pul mablag‘lariga aylanuvchi qiymatliklarining pul aylanish darajasi va uning uzoq muddatli hamda joriy majburiyatlarini to‘lash uchun yetarli yoki yo‘qligini aniqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, biz tomonimizdan berilayotgan takliflarning amaliyotga joriy qilinishi, xo‘jalik yurituvchi subyektning to‘lovga qobiliyatini to‘laqonli va realroq aniqlashga imkon berib, asosli xulosalar hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kodeks (2021). O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Qonun hujjatlari to‘plami.
2. Qaror (2020). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-dekabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 775-son qarori.
3. Mavlanov (2019). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent.
4. Ergashev (2021). Avtomobil transporti korxonalarida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent.
5. Turdiyeva (2019). Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent.
6. Raximov, Qalandarova (2019). Moliyaviy tahlil. Darslik. / – T.: “Iqtisod-Moliya”.
7. G. Turdiyeva. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent. 2019.
8. Ковалев А. И., Привалов В. П. Анализ финансового состояния предприятия. М.: “Центр экономики и маркетинга”, 2000г. – 209 с.

16 Turdiyeva G. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2019.

9. Бочаров В. В. Финансовый анализ. С-Пб.: “Питер”, 2001г. – 236 с.
10. https://corporatefinanceinstitute. com/resources/knowledge/finance/solvency-ratio/
11. Mavlanov N. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2019.
12. Turdiyeva G. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2019.
13. Mavlanov N. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B. 15.
14. Абрютина Н. С. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия. М.: “Дело и сервис”, 2000г. – 256 с.
15. Елена Калашникова. Часть VI. Критерии успешного антикризисного управления финансами предприятия. 2010.
16. Dahiyat, A. (2016). Does Liquidity and Solvency Affect Banks Profitability? Evidence from Listed Banks in Jordan. International Journal of Academic Research in Accounting, Finance and Management Sciences, 6(1), 35–40. Retriyeved from https://ideas. repec. org/a/hur/ijaraf/v6y2016i1p35–40. html
17. Yusoff, H. B. M. (2017). The Effect of Liquidity and Solvency on Profitability: The Case of Public-Listed Consumer Product Companies in Malaysia (Master Thesis). University Tun Hussein Onn Malaysia.
18. Soenen, L. A. (1993). Cash conversion cycle and corporate profitability, Journal of Cash Management, Vol 13 No 4. – pp. 53–58.
19. Kanaan, A., & Saoud, A. (2018). The effect of financial leverage on profitability – An applied study on non-financial companies listed on the Damascus Stock Exchange. Economic and Legal Sciences Series, 40(3), 265–280. Retriyeved from http://journal. tishreen. edu. sy/index. php/ econlaw/ article/ view/ 4651/4421 (in Arabic language)
20. Moulton, H. G (1918). Commercial banking and capital formation. The Journal of Political Economy. 26(7). 32–38. https://doi. org/10.1086/253118
21. Udoka, C. O., & Anyingang, R. (2012). An analytical and theoretical investigation of the determinants of deposit money bank’s investment in treasury bills in Nigeria. European Journal of Business and Management, 4(21),42–48.https:// www. iiste. org/ Journals/ index. Php/ EJBM/ article/ view/ 3615
22. Emmanuel, N. R. (1997). Commercial banking in an era of deregulation (3rd ed.). Westport, CT: Greenwood Publishing Group.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.